

TURKIY DAVLATCHILIK VA FOLKLOR AN'ANASIDA OSHIQ TASHLASH RUSUMI

Saidmurodova Munavvar Soxib qizi

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti magistranti, 2-kurs

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti

Ilmiy rahbar: f.f.n., prof v.b Karimova Yulduz Akulovna

E-mail: munavvarasaidmurodova@gmail.com

Tel: (+99890) 817-08-12

Annotatsiya: Mazkur maqolada turkiy xalqlar davlatchiligi tarixida o'ziga xos diplomatik va harbiy chorlov ramzi hisoblangan "oshiq tashlash" rusumi tahlil qilinadi. Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostoni hamda Po'ltan shoir ijrosidagi "Shayboniyxon" xalq dostonidagi Bobur va Shayboniyxon obrazlari o'rtasidagi munosabatlar biografik metod va folklorshunoslik mezonlari asosida qiyoslanadi.

Kalit so'zlar: oshiq tashlash, Bobur, Shayboniyxon, Muhammad Solih, Po'ltan shoir, biografik metod, elchilik odobi, Hodi Zarifov, oltin oshiq.

Abstract: This article analyzes the tradition of "throwing knuckles" (oshiq tashlash), which is considered a unique symbol of diplomatic and military challenge in the history of Turkic statehood. The relationship between the figures of Babur and Shaybanikhan in Muhammad Salih's epic "Shaybaninama" and the folk epic "Shaybanikhan" performed by the poet Polkan is compared based on the biographical method and criteria of folklore studies. The study reveals the semantic transformation of this tradition from a symbol of irony and political inexperience in written literature to a manifestation of heroic challenge and diplomatic duel in oral folk traditions.

Keywords: throwing knuckles (oshiq tashlash), Babur, Shaybanikhan, Muhammad Salih, Polkan poet, biographical method, embassy etiquette, Hodi Zarifov, golden knuckle (oltin oshiq).

Turkiy xalqlar madaniyati va siyosiy hayotida ba'zi detallar borki, ular shunchaki maishiy vosita bo'lmay, balki davlat boshqaruvi, ijtimoiy iyerarxiya va shaxsiy munosabatlarni belgilovchi ramz vazifasini o'taydi. Shunday qadimiy rusumlardan biri "oshiq tashlash" (yoki oshiq yuborish) odatidir. Ushbu rusum o'zbek dostonchiligida, xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning biografik yo'li aks etgan asarlarda markaziy motivlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

1. Tarixiy-Etimologik Ildizlar va Ilmiy Talqin

"O'yin insonga xos bo'lgan faoliyat turlaridan biridir. Uning mohiyati haqiqatni aks ettirish, o'zgartirish qobilyatidir. Shuning uchun ham u har doim nafaqat o'qituvchilar, balki faylasuflar, etnologlar, psixologlar, shifokorlar, folklorshunoslar

va tadqiqotchi olimlarning e'tiborini tortgan. Jumladan, rolli o'yinlar (A.I.Tikachenko, E.A.Fomin), ochiq o'yinlar (I.M.Korotov, V.I.Lyax), didaktik (E.A.Dishinskiy, V.M.Zaxarov, E.E.Seletskaya) va yuqoridagi turlarning u yoki bu kombinatsiyasini ifodalovchi "murakkab o'yinlar" ta'limining umumiy muammolari (L.M.Ivanova, G.A.Lyapina, S.A.Shmakov) o'rganilgan. Bundan tashqari xalq o'yinlarini izlash, tadqiq qilish va xalq orasida targ'ib qilishda shu sohaning olimlari T.S. Usmonxodjayev, F.Nasriddinov, G.Jahongirov, Abdurahim Abdurahmon Rahim o'g'li, M.M.Rahimov, X.A.Meliyev o'zlarining munosib ulushlarini qo'shgan"¹. Rolli o'yinlar turkumiga kiruvchi o'yinlardan eng qadimgisi bu "podsho-vazir" o'yini hisoblanadi. Ushbu o'yin qadimda "oshuq o'yini" deb ham yuritilgan. Bu o'yinning kelib chiqish tarixi qadimgi Xorazm vohasiga borib taqalib, avloddan- avlodga o'tib kelmoqda. Bu o'yin asosan, to'y va ziyofatlarda, yigitlar davrasida navbatma-navbat oshiq otarish(tashlash) yo'li bilan o'ynalgan. Oshiq (qo'y yoki echki oyog'ining bo'g'in suyagi) hisoblanib, to'rt tomonini ham o'z nomi bo'lgan. Uning yuqoridagi botiq tomoni "olchi-podshoh", pastki tekis tomoni "toyva-vazir", yonbosh qabariq tomoni "pikka-so'fi (aybsiz)", unga qarama-qarshi bo'lgan botiq tomoni "chikkagunohkorlik"ni bildirgan. Turkiy xalqlar tushunchasida omad va hokimiyat ramzi sanalgan. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida "asiq" (oshiq) so'zi yutuq va balandlik ma'nolari bilan bog'lanadi. Folklorshunos olim Hodi Zarifov o'z tadqiqotlarida qayd etishicha, dostonlardagi oshiq detali shunchaki o'yin tasviri emas, balki qahramonning ijtimoiy mavqeyini belgilovchi "shartli signal"dir.

"Bu o'yinda yigitlar davrasining o'ng tomonidagi kishi oshiqni tashlab o'yinni boshlab bergan. So'ngra galma-gal o'z navbati bilan oshiq tashlash davom etib, davrani qayta-qayta aylanavergan. Oshiq tashlash davomida podsho va vazir aniqlanmaguncha gunohlorlar hisobga olinmagan. Podsho va vazir esa oshiq tashlash yo'li bilan davra ishtirokchilaridan saylangan"². Vazirlik lavozimiga erishgan kishi qamchidek eshib tayyorlangan durrani qo'lga oladi va oshig'i olchi tushgan kishining oldiga borib, unga podsholik ramzi sifatida sallani o'raydi. So'ngra ikkovi orasida (ikkovi ham cho'kka tushib o'tirgan holda) suhbat boshlanadi:

Vazir: Assalomualaykum, podshoyim, xizmatigingizga keldik (qo'l olishib salomlashadilar).

Podsho: Xizmatimizga yaraysizmi?

Vazir: Xizmatigingiz biladi.

Podsho: Xaloyiqni tartibga chaqiring.

Vazir: Xo'p bo'ladi (vazir xalqni podsho buyurgandek tartibga chaqiradi)

Vazir: Podshoyim, xaloyiq tinch. Yo'rg'ani yuritishga ijozat bering.

¹ Niyozmatov. A. O'zbek xalq o'yinlari asosida o'quvchilarni ma'naviy tarbiyalashning o'ziga xos xususiyatlari. – Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, 10-son, 178-bet.

² Дала ёзувлари. — Хоразм вилояти, Хива шаҳри, 2020 й.

Podsho: Yo‘rg‘ani yuriting

Navbati kelgan kishi oshiqni tashlaydi. Oshig‘i pikka tushsa, oshiq navbatdagi kishiga o‘tadi. Agar oshig‘i chikka tushsa, darhol vazir podshoga murojaat qiladi.

Vazir: Podshoyim, dod

Podsho: Arzingni ayt.

Vazir: Men bir o‘g‘ri tutdim

Podsho: Na o‘g‘risi?

Vazir: Olma o‘g‘irlyotganda tutdim

Podsho: Olma uzgan qo‘liga besh juft dan darra uring.

Aybdor: Podshoyim, arzim bor.

Podsho: Aybdor, arzingni ayt

Aybdor: Sherigim bor

Podsho: Sherigini ham sinab ko‘ring³.

Yana navbatdagi kishi oshiq tashlaydi. Agar uning oshig‘i pikka tushsa aybdor bilan ikkovi turib podshoga “qulluq, podshoyim” deb joyiga o‘tiradi. Agar chikka tushsa, ikkisi ham tutib jazolanadi. O‘yinning qisqacha mohiyati bilan yuqorida tanishdik. Xorazm vohasi uchun ushbu milliy o‘yin nafaqat ko‘ngilochar, balki xalqning milliy an‘anasini ham ko‘rsatishga xizmat qilgan. Quyida “oshiq” ning to‘rt tomonlama ko‘rinishi tasviri ko‘rsatilgan:

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak, podshohlar o‘rtasida ham toj-u taxt munosabatlarida aynan shu “oshiq tashlash” o‘yiniga murojaat qilinganini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, tarixdagi ikki buyuk hukmdorlar Shayboniyxon va Bobur o‘rtasida Movarounnahr taxti uchun olib borilgan siyosiy jarayonlarda kuchlar qarama-qarshi kelganda shu o‘yindan foydalanilganiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Shayboniyxon minglab qo‘shini bilan Movarounnahr ustiga yurish qilgan chog‘da Bobur Mirzo ortga chekinadi. Shu vaqtda Siyob bo‘yiga kelgan Shayboniyxon ushbu o‘yinni Bobur Mirzoga taklif qiladi. Quyida bu holatni Muhammad Solihning “Shayboniynoma” dostoni va xalq og‘zaki ijodida yaratilgan Po‘lkan shoir ijrosidagi “Shayboniyxon” dostonlari misolida ko‘rishimiz mumkin.

2. Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asarida oshiq: Istehzo va Tajribasizlik ramzi

Yozma adabiyot namunasi bo‘lgan ushbu dostonda Muhammad Solih Boburni Shayboniyxonga nisbatan hali siyosiy jihatdan yetilmagan hukmdor sifatida ko‘rsatish uchun “oshiq” detalidan foydalanadi:

³ T. Qilichov. Xorazm xalq teatri. 1998-yil 86-87-bet.

“Dedilar: Bobur ulki xon bo‘ldi,
Sizga xizmatda jonu tan bo‘ldi.
Lekin ul yoshdurur, hunar bilmas,
Oshiq o‘ynar, hali g‘anim bilmas”⁴.

Bu yerda oshiq o‘ynash — davlat ishlaridan ko‘ra o‘yinga moyillik, ya’ni Boburning hali “bola” ekanligiga ishora. Bu muallifning Shayboniyxonning g‘alabasini ma’naviy jihatdan oqlash uchun qo‘llagan biografik tahriridir.

3. Po‘lkan shoir talqinida “Oltin oshiq”: Mardona chorlov va Diplomatik duel

Dostonda tasvirlanishicha Shayboniyxon Bobur Mirzoga bir xat bitadi. Unga ko‘ra, “Bir pallada men sening tuzingni yeb edim, oldingda xizmat qilib edim. Men seni andisha qilib, ustingga joylab bora olmadim. Ana endi Siyopning ustiga chiqaman. Ana shul pastga dobulni ushlayman. Sen “oshiq”ni tashlaysan. Shu dobulning ustiga. Olchisi ham seniki, chikkasi ham seniki, pikkasi ham seniki, tovkasi ham seniki, unmasi meniki. Shul dobulning ustiga unma tursa sen shahardan chiqib ket. Shul to‘rttovi tursa, men kelgan jo‘limni ketman”⁵.

Dostonda Shayboniyxon tilidan Bobur Mirzoga go‘yoki ilgari uning xizmatida bo‘lganini bildiruvchi so‘zlar aytiladi. Biroq bu holat tarixiy manbalar bilan tasdiqlanmaydi. Tarixiy haqiqatga ko‘ra, Shayboniyxon Bobur Mirzoga xizmat qilgan shaxs emas, balki temuriylar hukmronligi bilan siyosiy raqobat olib borgan mustaqil hukmdor sifatida maydonga chiqqan. Shu bois mazkur epizod tarixiy voqelik emas, balki folklor tafakkurining mahsuli sifatida baholanishi lozim.

Xalq dostonlarida tarixiy shaxslar obrazi ko‘pincha real hayotdagi munosabatlardan farqli ravishda, axloqiy va ramziy maqsadlar yo‘lida qayta talqin qilinadi. Shayboniyxonning Bobur oldida “andisha qilgani” va “tuzini yeganini” tan olishi ham aynan shunday badiiy usul bo‘lib, bu orqali doston muallifi uning kamtarligi, adolatparvarligi va ahdga sodiqligini yanada bo‘rttirib ko‘rsatishni ko‘zlaydi. Natijada tarixiy aniqlikdan chekinilgan bo‘lsa-da, badiiy g‘oya — Shayboniyxonni ma’naviy ustun shaxs sifatida tasvirlash — yetakchi o‘ringa chiqadi

Xatda bayon etilgan shartga ko‘ra, Bobur Mirzo oshiqni Shayboniyxon ushlab turgan dobul ustiga tashlashi lozim bo‘ladi. Oshiqning tushish holatlari — olchisi, chikkasi, pikkasi va tovkasi Boburga, faqat unma tomoni Shayboniyxonga tegishli deb belgilanadi. Agar oshiq dobul ustida unma holatda tushsa, Bobur shaharni tark etishi, aksincha, to‘rt tomondan biri tushsa, Shayboniyxon kelgan yo‘li bilan ortga qaytishi kerakligi kelishib olinadi. Bu shartlar Shayboniyxon tomonidan taklif etilgan bo‘lsa-

⁴ <https://www.ziyouz.com>

⁵ «Шайбонийхон» достони. // Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. — Тошкент: «Мадад» нашриёти, 2025. — 106-б.
(По‘лкан шоир ижросидаги вариант)

da, ularning adolat tamoyiliga asoslangani, ya'ni imkoniyat Bobur foydasiga ko'proq berilgani dostonda alohida ta'kidlanadi.

Natijada oshiq unma holatda tushadi va bu holat uch marotaba takrorlansa ham Shayboniyxon g'alaba qozonadi. Doston muallifi bu voqeani tasodif yoki makr emas, balki ilohiy iroda — Haq taoloning xohishi sifatida talqin qiladi. Shayboniyxonning yutug'i uning haq yo'lda ekaniga, Boburning mag'lubiyati esa vaqtinchalik omadsizlik emas, balki taqdir hukmi ekaniga ishora sifatida beriladi. Shu tariqa Shayboniyxon obrazi adolatparvar, ahdga sodiq va taqdirga bo'yin egadigan shaxs sifatida yuksaltiriladi.

Biroq voqealar davomida Bobur Mirzoning mag'lubiyatdan so'ng shaharni tark etib, keyinchalik yana qo'shin to'plab qaytishi doston doirasida salbiy baholanadi. Bu holat lafzsizlik, ya'ni aytilgan so'z va berilgan ahdga xilof ish tutish sifatida talqin etilib, Bobur obrazining ma'naviy jihatdan zaif tomonlarini ochib berishga xizmat qiladi. Shu orqali xalq og'zaki ijodiga xos axloqiy mezon — so'zga sadoqat va ahdni buzmaslik g'oyasi ilgari suriladi hamda Shayboniyxon va Bobur obrazlari keskin qarama-qarshi qo'yiladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi har ikki dostonda ham “oshiq tashlash” rusumi Bobur va Shayboniyxon o'rtasida amalga oshirilganini ko'rsatadi. Tarixiy tahlilga ham tayangan holda biz bu voqea ikki buyuk hukmdor o'rtasida amalga oshirilganiga guvoh bo'lamiz. Ammo tarix shuni ko'rsatadiki, Bobur bu shartda yengilgandan so'ng yurtni tashlab ketadi va ortga qaytmaydi. Qo'l ostidagi askarlarga ham ixtiyor o'zida ekanligini aytadi. Shunga qaramasdan unga sodiq insonlar ortidan ergashib Hindiston tomon ketishadi va natijada Boburiylar sulolasiga asos solishadi. Tarixiy haqiqat va badiiy talqindagi farqlarni shu holatda ham ko'rishimiz mumkin.

4. Folklorshunoslar va Etnograflar Talqini

Folklorshunos olimlar ushbu rusumni bir necha jihatdan tahlil qiladilar:

Mifologik jihat: Oshiqning “alchi” (tik) turishi — davlatning yuksalishi, “bo'ka” (yonbosh) turishi — tushkunlik belgisi hisoblangan.

Etnografik jihat: Abulg'oz Bahodirxonning “Shajarayi turk” asarida elchilikda oshiq yuborish “shart qo'yish” manosida kelishi ta'kidlanadi.

Biografik metod: Tadqiqotchi olim Yo'ldosh Rahmatov ta'kidlashicha, xalq dostonchiligida Bobur va Shayboniyxon o'rtasidagi real tarixiy raqobat aynan mana shu “oshiq tashlash” kabi an'anaviy motivlar orqali badiiy-biografik qolipga solingan.

Zamonaviy adabiyotda ham oshiq tashlash rusumi haqida ma'lumotlar ijodkorlar asarlarida uchrab turadi. Xususan, “o'zbek xalqining sevimli adibi Oybek o'zining qator asarlarida 30 taga yaqin milliy xalq o'yinlarini batafsil bayon etgan. Yoritilgan o'yinlar xalqning kundalik turmushini, ishini, yumushini, rasm-rusumlarini aks ettiradi. Shuning uchun Oybekning o'zi “...men ijodimni xalq taqdiri bilan bog'lashga harakat qildim, xalqqa foydali ish qilishga, uning orzu-umidlarini ifodalashga intildim,

xalqning quvonchlari va qiyinchiliklariga hamdard bo‘ldim”⁶, deydi. Binobarin, u haq gapni aytgan edi:

Yosh o‘rtoqlar bir zamon
Sizdek bir bola edim,
Laqabim – “Mitti polvon”,
Yumaloq, qora edim.
Sakradim tomdan-tomga
“Boyinchoq” it yonimda
Oshiq, chillak o‘ynardik,
So‘ng ko‘chada shomgacha.

Yosh Muso xalqning azaliy o‘yini bo‘lib kelgan “oshiq” o‘yinini juda mohirona o‘ynagan. “Esimda qolganlaridan” she‘rida:

Oshiq o‘ynar edik doyim
Nonho‘rakka kelgan zamon
Bir to‘p bola...chang, to‘palon,
Ko‘chalarda yurar joyim.
Kirisharkan men o‘yinga
Yassi soqqam ish berar.
Kuragidan chiqmay sira
Oshiqlarni ho‘p terar⁷”.

Xulosa

“Oshiq tashlash” rusumi o‘zbek dostonchiligida shunchaki etnografik detal emas, balki qahramonlar xarakterini ochuvchi muhim badiiy vositadir. Muhammad Solihda u kamsitish belgisi bo‘lsa, Po‘lkan shoirda mardlik va diplomatik chorlov ramzidir. Ushbu rusumni o‘rganish Zahiriddin Muhammad Boburning real hayot yo‘li va uning folklorik talqini o‘rtasidagi bog‘liqlikni biografik metod asosida yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oshiq o‘yini xalq tafakkurida oddiy bolalar mashg‘uloti yoki tasodifiy o‘yin sifatida emas, balki taqdir, adolat va ilohiy hukmni ramziy ifodalovchi marosim darajasiga ko‘tarilgan. Shayboniyxon va Bobur Mirzo haqidagi dostoniy rivoyatda bu o‘yin siyosiy va tarixiy qarama-qarshilikni hal etuvchi vosita sifatida talqin qilinib, Shayboniyxon g‘alabasi Haq taoloning xohishi, Bobur mag‘lubiyati esa taqdir hukmi sifatida baholanadi. Bu holat xalq og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan axloqiy mezonlar — ahdga sadoqat, so‘zga qat‘iylik va adolat tushunchalarining yetakchi ekanini ko‘rsatadi.

⁶ “Oybek asarlarida xalq milliy o‘yinlarining yoritilishi” (52-53-betlar)

⁷ Usmanxodjayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar. — Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2015. — 65-bet.

Zamonaviy adabiyotda, xususan Oybek ijodida uchraydigan oshiq o‘yini tasvirlari esa mazkur ramziy an‘ananing yangi badiiy bosqichda davom etganidan dalolat beradi. Oybek she‘rlarida oshiq o‘yini tarixiy-siyosiy bahs vositasi sifatida emas, balki xotira, bolalik, milliy ruh va xalqona tafakkur timsoli sifatida poetik talqin qilinadi. Shu orqali yozuvchi xalq og‘zaki ijodiga mansub qadimiy ramzni zamonaviy badiiy tafakkur bilan uyg‘unlashtiradi.

Demak, oshiq o‘yini obrazi dostonlarda taqdir hukmini belgilovchi muqaddas ramz sifatida namoyon bo‘lsa, Oybek ijodida u milliy xotira va madaniy uzluksizlik timsoliga aylanadi. Bu esa o‘zbek adabiyotida folklor motivlarining tarixiy davrlardan zamonaviy adabiyotgacha uzviy davom etib kelayotganini, ularning mazmunan yangilanib, ammo ma‘naviy ildizini yo‘qotmaganini yaqqol tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T. Qilichov. Xorazm xalq teatri. 1998-yil 86-87-bet.
2. Usmanxodjayev T.S., Isroilov Sh.X., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A. Milliy va harakatli o‘yinlar. — Toshkent: “Iqtisod-Moliya”, 2015. — 65-bet.
3. Дала ёзувлари. — Хоразм вилояти, Хива шаҳри, 2020 й.
4. Niyozmatov.A. O‘zbek xalq o‘yinlari asosida o‘quvchilarni ma‘naviy tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari. – Ta‘lim va innovatsion tadqiqotlar, 2023, 10-son, 178-bet.
5. “Oybek asarlarida xalq milliy o‘yinlarining yoritilishi” (52-53-betlar)
6. «Шайбонийхон» достони. // Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. — Тошкент: «Мадад» нашриёти, 2025. — 106-б. (Пулкан шоир ижросидаги вариант)
7. <https://www.ziyouz.com>